

GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI

Farzona Mirzaqodirova

AndPI filalogiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Arabboyeva Mahfuza

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gapning ikkinchi darajali bo'laklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ikkinci darajali bo'laklar, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, vositali va vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi, izohlovchi aniqlovchi.

ANNOTATION

This article provides information about the second part of the sentence.

Keywords: secondary fragments, determiner, filler, case, medium and without means fillers, adjective determiner, pointer determiner, interpretive determiner.

Gapning kesimi yoki egasiga tobelanib, ularga ergshib keladigan bo'laklar ikkinchi darajali bo'laklar deyiladi. Ikkinci darajali bo'laklar uch xil bo'lib, ular: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol. Bu bo'laklar gapni, uning ayrim bo'laklarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ular fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid so'z, olmoshlar bilan ifodalanishi mumkin. Gapdagi barcha bo'laklar kesimga bevosita yoki bilvosita bog'lanadi. Bevosita deganda to'g'ridan to'g'ri bog'lanish tushuniladi. Bilvosita bog'lanish deganda biror bo'lakning kesimdan boshqa bo'lakka bog'lanishi tushuniladi. Masalan, biz bog'da chiroyli gullarni terdik gapida gapning kesimi terdik hisoblanib, biz- ega, bog'da- hol, gullarni- to'ldiruvchi kesimga bevosita bog'langan. Chiroyli so'zi esa kesimga emas gullarni- to'ldiruvchiga bog'lanib, keyin kesimga bog'langan va bilvosita bog'lanishni hosil qilgan.

To'ldiruvchi, asosan, kesimga boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, kimga?, nimaga?, kimdan?, nimadan?, kim bilan? nima bilan? kabi so'roqlarga javob bo'ladi . To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: 1. Vositali to'ldiruvchi

2. Vositasiz to'ldiruvchi

Vositasiz to‘ldiruvchi belgili va belgisiz tushum kelishigi shakllari bilan ifodalanadi va kimni?, nimani?, qayerni? So‘rog‘lariga javob bo‘ladi. Masalan, Ariqni bir kishi qazadi, suvni ming kishi ichadi.

Vositali to‘ldiruvchi hokim so‘zning kim(- da,-ga, -dan,bilan, haqida); nima(-da, -dan,-gabilan, haqida) kabi so‘roqlarga javob bo‘lib keladigan kengaytiruvchilardir. Vositali to‘ldiruvchilar tushum, jo‘nalish, o‘rin—payt, chiqish kelishiklar bilan va bilan, uchun, haqida kabi sof komakchilar bilan ifodalanadi . Masalan, omadli insonlar bilan bog‘da suhbatlashdik gapida insonlar bilan birikmasi vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajargan.

Aniqlovchi hokim bo‘lakdan anglashilgan narsaning qandayligi, kimga yoki nimaga qarashliligini bildirib qanday?, qanaqa?, qaysi?, kimning?, nimaning?, qayerning? so‘roqlariga javob bo‘luvchi gap bo‘lagidir.

Aniqlovchilar ma’no turiga ko‘ra uch xil bo‘ladi:

1. Sifatlovchi aniqlovchi
- 2.Qaratqich aniqlovchi
- 3.Izohlovchi anqilovchi

Sifatlovchi aniqlovchi hokim bo‘lakdan anglashilgan ma’nuning belgisini bildirib, qanday?, qanaqa?, qaysi?, qancha?, nechta? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan, Bahaybat samalyot yerga ohista qo‘ndi. Sifatlovchi aniqlovchi ot, sifat, son,sifatdosh, ravish, taqlid so‘zlar bilan ifodalanadi.

Predmetning kim, nima, qayerga mansubligi, qarashliligini bildirib o‘zidan keyingi bo‘lakka moslashuv yo‘li bilan tobelangan aniqlovchi qaratqich anqilovchi hisoblanadi va kimning?, nimaning? qayerning? So‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan, yaxshining yaxshuligi tegar har yerda. Qaratqich aniqlovchi ot, olmosh, harakat nomi va otlashgan so‘zlar bilan ifodalanadi.

Izohlovchi aniqlovchi shaxs va narsaning boshqa tomoni(turi, mansabi, qarindoshligi kabilar) tomonidan nomlaydi va ot bilan ifodalanadi. Kapitan Mansurov so‘zladi. Kapitan so‘zi Mansurov so‘zini mansab, unvoniga ko‘ravnomlab kelgan va izohlovchi aniqlovchi vazifasini bajargan.

Hol kesim ifodalagan ish-harakat, holat, voqeа-hodisaning o‘rni, payti, miqdor-darajasi, sababi, maqsadi kabi xususiyatlarini ifodalab keladi . holler ma’nosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Payt holi ish-harakat yoki holatning bajarilish paytini bildirib qachon?, qay vaqt? Kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi . Bugun konsertga boramiz.
2. O‘rin holi makon-zamon kelishigidagi so‘zlar yoki ko‘makchili otlar, o‘rin ravishlari bilan ifodalanadi va qayerda so‘rog‘iga javob bo‘lib o‘zidan keyingi so‘zga boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi. Bunda qurtlar ipak to‘qiydi.

3. Ravish holi ish-harakatning qay tarzda bajarilganini bildirib, qanday?, qanday qilib?, qay ahvolda? kabi so‘rog‘larga javob bo‘ladi va o‘zidan keyingi bo‘lakka bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi. Botirlarcha harakat qildi.
4. Daraja-miqdor holi ish-harakatning miqdor va darajasini bildirib, qanch?, nechta?, necha marta? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Ular, ko‘pincha, sonlar, daraja-miqdor ravishlari va marta so‘zi qatnshgan iboralar bilan ifodalanadi. Kam de, oz ye- ko‘p yashaysan .
5. Sabab holi ish-haraktning sababini bildirib, nimaga?, nima sababdan?, nima uchun kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Quvvatsizligidan charchadi.
6. Maqsad holi ish-harakatning mqsadini bildirib, nima uchun?, nima maqsadda? Kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Bolalar o‘ynab kelgani ko‘chaga chiqib ketishdi. Xulosa. Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari doim bosh bo‘laklarga tobe bo‘lib, ularni to‘ldirib, aniqlab, izohlab keladi va gapni, uning ayrim bo‘laklarini kengaytirishga, aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. www.ziyonet.uz
2. Ona tilidan qo‘llanma.N.Erkaboyeva
3. 5-9-sinflar ona tili darsligi